

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

INNOVATION YONDASHUVLAR ASOSIDA YAYLOVLARDAN FOYDALANISH VA  
HOSILDORLIKNI OSHIRISH

F. Sh.Xudoyberdiyev

*“Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrasi dotsenti*

*Muxamadov Qamoriddin Muxtor o’g’li, Bobojonov Saidjon O’tkirovich*

*Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish magistrleri*

*Mirzomurotov Maksudjon Farhod o’g’li*

*“Yer kadastro va yerdan foydalanish” ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi*

**Anotatsiya:** Yaylovlar mamlakatimiz cho’l chorvachiligining asosiy ozuqa manbai bo’lib, ulardan yil bo’yi foydalanish imkoniyati mavjud. Yaylov ozuqasi eng arzon ozuqa manbai hisoblanadi. cho’l yaylovlari hosildorligi ob-havo sharoitlari bilan bevosita bog’liq, shu bois, hosildorlik yillar va yil mavsumlari bo’ylab keskin o’zgarib turadi. Yog’in-sochin miqdori ko’p yillarda cho’l yaylovlarining hosildorligi ikki marotabagacha ortadi, qurg’oqchilik yillarda esa 0,5-1 sentner/gektargacha kamayadi. Ko’p yillik kuzatishlar shundan dalolat beradiki, har o’n yilda 3 yil hosildor, 4 yil o’racha hosilli va 3 yil kam hosilli yillar takrorlanib turadi.

**Kalit so’zlar:** Cho’l, o’simlik, yaylov tiplari, yaylov hajmi, zagon, o’tlatish tartibi, yaylovlarni almashlash.

**Аннотация:** Пастбища являются основным источником корма для скотоводства и могут использоваться круглый год. Растительность пастбищ является самым дешевым источником кормов. Продуктивность пустынных пастбищ напрямую связана с погодными условиями, поэтому оно резко меняется с годами и сезонами. В годы которые наблюдаются большие осадки, урожайность пастбищ удваиваются, а засушливые годы урожайность пастбищ уменшаются на 0,5-1,0 ц/га. Многолетние наблюдения показывают, что по урожайности за каждый десят лет в таком виде повторяется - 3 года хорошего, 4 года среднего и 3 года низкой урожайности.

**Ключевые слова:** Пустыня, растительность, типы пастбищ, размер пастбищ, пастбища, порядок выпаса скота, обмен пастбищами.

**Annotation:** Pastures are the main source of fodder for livestock breeding and can be used all year round. Vegetation of pastures is the cheapest source of fodder. The productivity of desert pastures is directly related to weather conditions, so it changes dramatically with the years and seasons. In years with high precipitation, pasture yields double, and dry years reduce pasture yields by 0.5-1.0 c/ha. Long-term observations show that for every ten years the yield is repeated in this form - 3 years of good, 4 years of average and 3 years of low yield.

**Keywords:** desert, vegetation, types of pastures, pasture size, grazing order, pasture exchange.

**Kirish.** Respublikaning foydalaniladigan yaylovlarining umumiyligi maydoni 23,6 mln gektarni tashkil qiladi. Bu umumiyligi xududning 52% ini tashkil qiladi. Shu jumladan, cho’l va yarim cho’llardan iborat qorako’lchilik yaylovlari 17,8 mln gektarni tashkil qiladi. Shundan 14 foizi suv bilan ta’minlangan emas [1, 8].

## Ilmiy elektron jurnali

Cho'l va yarim cho'l yaylovlari (adirlar) respublikada cho'l-yaylov chorvachiligi ozuqa manbai sifatida foydalaniladi. Cho'l va yayrim cho'l mintaqasida yog'ingarchilikning taqsimlanishi xududlar bo'y lab juda o'zgaruvchandir va bu jarayon namli havo harakati yo'nalishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi [4].

Cho'l mintaqasi mamlakatimiz cho'l yaylov chorvachiligi rivojlanayotgan yirik regiondir. Cho'l yaylovlaringin o'ziga xos qator xususiyatlari mavjudki, sohani keskin rivojlantirish uchun qulay sharoitlar tug'diradi. Cho'l yaylovlaringin eng muhim ijobiy xususiyati shundaki, yaylov o'simlik qoplami o'zining xayotiy formalarga, biologik xilma-xillikka boy bo'lib, yaylov ozuqasining to'yimliligi, nisbatan serhosilligini ta'minlaydi. Yaylovlarda yilning barcha mavsumlarida chorva mollari uchun oziqa topiladi. Shu bois, cho'l yaylov tiplarining deyarli barchasi yil bo'y yi foydalanish uchun yaroqlidir. Tuproq sharoitining turli tumanligi va kompleksligi o'simlik qoplaming turli tumanligi va o'ziga xosligini ta'minlaydi. O'zbekiston cho'l yaylovlari asosan uch tipga bo'linadi: adirlar, gipsli va kumli cho'l yaylovlari [5, 9, 10].

**Mavzuning dolzarbli:** Yaylovlardan ratsional foydalanishda eng avval yayloving qaysi tipga mansubligi, o'simliklar qoplaming o'ziga xos xususiyatlari, ularning yeyiluvchanlik, to'yimlilik xususiyatlarini bilish katta ahamiyatga ega. Adir va gipsli cho'l mintaqalarida boqilayotgan chorva hayvonlarning soni ancha ko'p bo'lib, ko'pchilik xo'jaliklarda bir bosh qo'yga 1 ga dan kam yaylov to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida yaylovlarga bo'lgan taziqning 3-4 marotaba yuqori bo'lishiga va yaylov tanazzulining kuchaishiga, biologik xilma-xillikning tobora kambag'allashuviga olib keldi.

**O'rganish ob'ekti:** Yaylovlarning kengligi, chorva xayvonlari bosh sonining kamligi bilan bir qatorda, Buxoro va Navoiy viloyatlarida inqirozga uchragan yaylovlar salmog'i eng yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi achinarli xaqiqatdir. Bunday salbiy oqibat, albatta yaylovlardan pala-partish va rejasiz foydalanish, buta o'simliklarini chopib olish, yaylov sig'imiga mos ravishda mol boqmaslik kabi faoliyatlar natijasidir.

**Tatqiqot natijalari:** O'zbekistonning cho'l, adir, tog'lik yaylovlarning ko'pchiligi mavsumiy yaylovlardir. Bu yaylovlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyati ularda hayvonlar faqat bahor yoki yozda, kuz yoki qishda boqiladi. Shuningdek, hayvonlar, yil bo'y yi, boqiladigan yaylovlar ham bor. Ular katta maydonlar bo'lib, ko'pincha, bir-birlaridan ancha uzoqda joylashgandir.

Bu yaylovlarda hayvonlarni ko'chirib boqish otlar va qo'yilar uchun samarali bo'lib, uzoq joylashgan ozuqa maydonlaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Cho'l va adirlarda, ko'pincha, bahorda foydalaniladigan yaylovlar bo'ladi, chunki ularda, asosan, efemer o'simliklar bo'lib, issiq kunlar boshlanishi bilan bu o'simliklar quriydi va hayvon boqishga yaramay qoladi. Yozgi yaylovlar o'simliklari sekinroq quriydigan va qurigandan keyin tez sinib ketmaydigan o'tlar o'sgan maydonlardir.

Yaylovlardan ratsional foydalanish tamoillari ichida suv bilan ta'minlash tizimi muhim ahamiyatga ega. Qorako'l qo'yalaridan olinadigan mahsulotlar xajmini orttirish, ularning sifatini yaxshilashda ularni to'yimli ozuqa bilan to'la-to'kis ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Lekin qorako'l qo'yalarining qishlovdan "charchab" chiqishi bu boradagi texnologik jarayonlarning buzilishidan darak beradi [3].

Hayvonlar yaylovda erkin o'tlatilganda, sog'lig'i yaxshilanadi, kasallanishlar kamayadi, ya'ni, bu kasalliklarning oldini olish tadbirlaridan sanaladi. Yaylovda hayvonlar ozuqa ratsionini miqdor va sifat jihatidan o'zları boshqaradi.

Yaylov davrida hayvonlarni o'tlatish soni ham o'tlar hosildorligiga va ularning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tuproq-iqlim sharoitlari o'tloqning suv bilan ta'minlanishi va holatiga ko'ra yaylovda hayvonlar o'tlatish soni har xil bo'ladi [4, 5].

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

O'tlatishlar sonini ko'paytirib yuborish o'tzorda o'simliklar siyraklashib ketishiga va yaylovning hosilsizlanishiga olib kelishi mumkin. Ammo o'tlatishlar soni kam bo'lganda ham o'simliklar dag'allashadi, hayvonlar yeyishi yomonlashadi va o'tzordagi ozuqadan yaxshi foydalanilmaydi.

Cho'l mintaqasida iqlim sharoitlari noqulayligi sababli ko'pchilik o'tlar takror o'smaydi. Bu mintaqadagi ko'pchilik yaylovlarda hayvonlarni ikki marta o'tlatish mumkin.

**Xulosa:** Yaylovlardan abadiy foydalanishni istasak yaylovlarni parvarishlashimiz zarur. Buning uchun yaylov davri davomida o'tzorni parvarish qilish bu maydonlardan muttaqil yuqori hosil olinishini ta'minlaydi. Bunday parvarishlash tadbirlariga yaylovda hayvonlar o'tlatilgandan keyin qolgan o'tlarni o'rish va ular qoldirgan go'nglarni sochib yuborish kabilar kiradi.

Hayvonlar, odatda, pishib dag'allashgan, zararli va go'ng ostida qolgan o'simliklarni yemaydi. Shuning uchun bunday o'tlar bo'lakda hayvonlar o'tlatilib bo'linishi bilanoq o't o'ruchchi mexanizmlar yordamida 5-6 sm balandlikda o'rildi. Agar bunday o'tlar ozroq bo'lsa, joyida qoldirish mumkin, ko'p bo'lsa, to'plab, quritib, so'ng xo'jalik ehtiyoji uchun foydalanish mumkin. Bu tadbir yaylovlarda begona o'simliklarni yo'qotishning ishonchli usuli hisoblanib, o'tzorni yaxshi holatda ushlab turishga yordam beradi.

### Takliflar:

1. Yaylov hajmini aniqlash hamda yaylov hajmini to'g'ri belgilash zarur.
2. Yaylovnini bo'lak (zagon)larga bo'lib foydalanish
3. Yaylov almashinuvini tashkil etish
4. Hayvon turlariga qarab foydalanish tartibi belgilash
5. Yaylovarda hayvonlarni o'tlatishning tizimlarini ishlab chiqish
6. O'tlatish tartibi hamda o'tlatish texnikasi ishlab chiqish
7. Yaylovlarni almashlash va foydalanish tartibini belgilash

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'g'risida milliy hisobot. 01.01.2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi 299-sod qarori.
3. Qorako'l oralig'idagi räg'ylar va ulardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy qo'llanma-Samarqand, 2001.
4. Yarim cho'l (adir) yaylovlarda oqilona foydalanish va hosildorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar. Qurg'oqchil hududlarda qishloq xo'jaligi tadqiqotlari xalqaro markazi (ICARDA), Qorako'l va cho'l yekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti. Toshkent-2016.
5. Xudoyberdiyev F.Sh. "Yaylovlarni yaxshilash, yangi yaylov barpo etish va yaylovlardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy maqola. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2019 yil 17-20 b.
6. Xudoyberdiev F.Sh. "Yer resurslaridan samarali foydalanishda tabiiy yaylov o'simliklari hosildorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar" mavzusidagi ilmiy maqola. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2020 yil 2-sod.
7. Xudoyberdiyev F.Sh. "Arzon va qulay ozuqa manbai hisoblangan yaylovlardan foydalanishdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish-chorvachilik rivojining kalitidir" mavzusidagi ilmiy maqola. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2020 yil 2-sod.
8. F.Sh.Xudoyberdiev "Yaylovlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy maqola. "Yer resurslarini boshqarish va muhofaza

qilishda innovatsion yondashuvlar: muammo va kreativ yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani.

9. F.Sh.Khudoyberdiyev Measures to prevent degradation of pastoral lands. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 7, Issue 3, March 2020
10. F.Sh.Khudoyberdiyev Development of effective methods for the use of pastureland. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 7, Issue 3, March 2020
11. Худойбердиев, Ф. Ш. (2019). Научная статья «Улучшение пастбищ, создание новых пастбищ и разработка эффективных методов использования пастбищ». Вестник Хорезмской Академии Мамуна, 17-20.
12. Худойбердиев, Ф. Ш., Шарипова, Ф. К., Бобоҷонов, С. У., & Мухамадов, К. М. (2014). Разработка эффективных методов использования пастбищных земель. The Way of Science, 69.
13. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, May). Innovative approach to rational use of pastures and increasing productivity. In " Online-conferences" platform (pp. 76-78).
14. Shamshodovich, K. F., Akhtamov, S., Muhammadov, K., & Bobojonov, S. (2021). The importance of the cluster system today. International Engineering Journal For Research & Development, 6, 3-3.
15. Худойбердиев, Ф. Ш. (2020). Зарубежный опыт в области пастбищных территорий, возможности и условия их использования в Узбекистане. Землеустройство, кадастр и мониторинг земель, (10), 24-27.
16. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, June). The importance of pasture lands in the development of the livestock sector in uzbekistan. in " online-conferences" platform (pp. 164-166).
17. Худойбердиев Ф. Ш. Меры предотвращения деградации пастбищных земель //Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. – 2020. – С. 331-333.